



Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

XITOYDA YURIDIK TERMINLAR VUJUDGA KELISHI TARIXI VA ULARNING TARJIMASI

Iroda Safarova

Tayanch doktorant,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MA QOLA HA QIDA

Kalit so'zlar: zamonaviy terminologiya, yuridik terminlar, Konfutsiy ta'lomi, legizm, jazo turlari, kodeks, jinoyat huquqi, shartnomalari.

Annotatsiya: Til leksikologiyasining doimiy yangilanishi va boyishi, jamiyatda yuz beradigan sohaviy o'zgarishlarga, yangi til birliklarining katta qismining paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, terminlar har qanday soha yoki fanning ajralmas bo'lagi hisoblanad. Xitoyda aynan yuridik terminlarning vujudga kelishi tarixiga nazar solsak, yuridik terminologiya uzoq tarixga ega ekanligi, mavjud ta'lilotlarga xos terminlar va ularning tarjimasi nafaqat o'sha davr uchun, balki hozirgi yuridik terminologiya uchun ahamiyatli ekanligining guvohi bo'lamiz.

HISTORY OF THE EMERGENCE OF LEGAL TERMS IN CHINA AND THEIR TRANSLATION

Iroda Safarova

PhD student, ,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: modern terminology, legal terminology, Confucius teaching, legalism, types of punishments, code, criminal law, agreements.

Abstract: The constant updating and enrichment of the lexicology of the language contributes to the sectoral changes taking place in society, the emergence of a significant part of new language units. Thus, terms are an integral part of any industry or science, when we look at the history of the emergence of legal terms in China, we see that legal terminology has a long history, that terms characteristic of existing doctrines and their translation are important not only for that time, but also for modern legal terminology

ИСТОРИЯ ПОЯВЛЕНИЯ ПРАВОВЫХ ТЕРМИНОВ В КИТАЕ И ИХ ПЕРЕВОД

Ирода Сафарова

Докторант,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

*современная терминология,
юридическая терминология,
Конфуцианство, легизм,
виды наказаний, кодекс,
уголовное право, договоры*

Аннотация: Постоянное обновление и обогащение лексикологии языка способствует отраслевым изменениям, происходящим в обществе, появлению значительной части новых языковых единиц. Таким образом, термины являются неотъемлемой частью любой отрасли или науки, когда мы смотрим на историю появления именно юридических терминов в Китае, мы видим, что юридическая терминология имеет долгую историю, что термины, характерные для существующих доктринах и их перевод, важны не только для того времени, но и для современной юридической терминологии.

KIRISH

Jahon tilshunosliga tilning leksik qatlamini atroflicha tadqiq etish masalasi, ayniqsa, yangi yasalgan terminlarning qo'llanilishi borasida munozarali xulosalar va mulohazalar ilgari surilganligi bilan izohlanadi. Xitoy tili ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va yuridik sohalari terminologiyasining shakllanishi ham Xitoy Xalq Respublikasining iqtisodiy, harbiy strategik, siyosiy hamda madaniy gumanitar rivojlanishidagi keskin o'sish oqibatida maydonga chiqdi.

Xususan, XXR O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritish hajmiga ko'ra yetakchi o'rinda turadi. O'zbekistonda XXRning 1600 dan ortiq korxona va zavodlari faoliyat olib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, turli xil yuridik hujjalarni, iqtisodiy shartnomalar, diplomatik aloqalarni mustahkamlashdagi bitimlar tilshunoslikning terminologiya sohasi boyishiga sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Tadqiqotlarga ko'ra, xitoylik olimlarning izlanishlarida "termin" va "terminologiya" tushunchalari bir-biridan ajratilmaydi, balki 术语学 [shùyūxué] so'zma-so'z tarjima qilinganda "Terminlar haqidagi fan" sifatida beriladi¹. Xitoy yetakchi tilshunosi Chjen Shupunning fikricha, XXR tashkil topganidan buyon uzoq muddat terminshunoslik sohasidagi nazariy tadqiqotlar tashkiliy, metodologik, ilmiy va amaliy jihatdan past saviyada bajarilishi terminologik ishlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi².

Feng Chjivey 冯志伟 [Féng Zhìwéi] o'zining "现代术语学引论" [xiàndài shùyūxué yǐnlùn]³ "Zamonaviy terminologiyaga kirish" monografiyasida terminologik masalalar nazariyasini tafsiflaydi va qator terminlarni belgilaydi. Xususan, 术语学 [shùyūxué], ya'ni "terminologiya" amaliy tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, uning ma'nolarining quyidagicha ta'riflarini keltirib o'tadi:

¹ О.Р. Очиров, Ч.Линь. Вопросы китайского терминоведения: От традиции "Упорядочения названий" к современной теории / Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. // №3, 2015. С. 192–199.

² 郑术普. 俄罗斯当代术语学. – 北京 : 商务印书馆 · 2005. – 10 页.

³ 冯志伟. 现代术语学引论. – 北京 : 商务印书馆出版社 · 2011 年. 第 3 页

- Terminlar ustida ishslash asosan terminologiyaning asosiy nazariyalari asosida olib boriladi, terminlarning kelib chiqish tabiatini, atama va tushunchalarining o‘zaro munosabati hamda terminlarning semantikasini o‘rganadi, shuning uchun terminologiyada atamalarni nazariy jihatdan o‘rganish asosiy mazmun hisoblanadi.

- “Terminologiya” xitoysenoslikda nafaqat terminlar nazariyasi, balki ularni qo‘llash amaliyoti va metodologiyasi, terminlar to‘plami, bu turli terminlarni aniqlash va ifodalash usullarini ham o‘z ichiga oladi va uning mazmunini tashkil etadi.

Xitojlik tilshunos Ye Chisong 叶其松 [Yè Qísong] o‘zining 术语学核心术语研究 [Shùyǔxué hé xīn shùyǔ yánjiū] “Asosiy terminlarni tadqiq etish” doktorlik dissertatsiyasini terminalogiyada “termin” tushunchasini tadqiq qilishga bag‘ishlagan. Bundan tashqari, ushbu izlanishda terminologiya, terminlar tizimi, terminlarni standartlashtirish, ularni aniqlash jarayoni va turli tillardagi evolutsiyasi haqida hamda nazariy masalalar, so‘z va terminlar o‘rtasidagi munosabat tahlil qilingan. U o‘z asarida terminologiya fanining mustaqil fan ekanligini ham qayd etadi⁴.

1980-yillarda xitoj tilshunoslari tomonidan bir qancha terminologiyaga oid kitoblar nashr etildi. Xususan, xitoysenos olim Lyu Gang 刘刚 [Liú Gāng] 术语学概论 [Shùyǔxué gài lùn] “Terminologiyaga kirish” asari⁵, Chjang Yi De 张一德 [Zhāng Yīdé] 应用术语学 [Yǐngyòng shùyǔxué] “Amaliy terminologiya”⁶, hamda Zou Shuning 邹树 [Zōu Shù] 现代术语学与辞书编 [Xiàndài shùyǔxué yǔ císhù biān] “Zamonaviy terminologiya va lug‘at”⁷ lari shular jumlasidandir.

1985-yildan boshlab Xitojda yiliga to‘rt marotaba “Xitoj terminologiyasi” ilmiy jurnali nashr etila boshlandi. Bundan tashqari, Xitojda terminologiya yo‘nalishini o‘rganishga bag‘ishlangan: 中国术语学建设研讨会 [Zhōngguó shùyǔxué jiànshè yántǎohui] “Xitoj terminologiyasining shakllanishi” deb nomlanuvchi ilmiy konferensiyalar muntazam ravishda o‘z faoliyatini boshladi.

1990-yillarga kelib, terminologiya asta-sekin xitoj tilshunoslari uchun mashhur tadqiqot sohasiga aylanib boradi. Birinchi “Zamonaviy terminologik nazariya”si 1997-yil avgust oyida aynan Xitojda nashr etilgan. Xususan, ushbu asarda shu kungacha bo‘lgan barcha terminologiya sohasiga oid ishlar jamlangan.

Lyue Yung Syuan 刘涌泉 [Liú Yǒngquán] o‘zining 略论我国术语工作 [Lüèlùn wǒ guó shùyǔ gōngzuò] “Xitoj terminalogiyasining qisqacha muhokamalari”⁸ mavzusidagi ilmiy ishida atamalarning so‘z va iborallardan iborat bo‘lishi mumkinligi, terminologiya fan texnika, san’at, ishlab chiqarish va boshqa sohalardagi turli hodisa, xususiyat va terminlarni belgilashda qo‘llaniladi.

Xitoj tilida aksariyat terminlar, xususan, yuridik terminologik leksikaning asosiy tarkibi ot so‘z turkumi asosida yaratilgan so‘z va iboralar bo‘lganligi sababli, 名词 [míngcí] leksikasi qo‘llaniladi. Agar 1985-yilda tashkil topgan 全国科学技术名词审定委员会 [Quánguó kēxué jìshù míngcí shéndìng wěiyuánhui] “Ilmiy-texnik nomalarini tasdiqlash bo‘yicha Umumxitoy qo‘mita”si terminologik tashkilotining nomiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u yerda ham 名词 [míngcí] leksikasini ko‘ramiz. Bu qo‘mitaning tadqiqotchilarini e’tiborini, asosan, ot so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan atamalar tortgan bo‘lishi mumkin, shuning uchun ham bu leksikadan foydalanishgan.

⁴叶其松. 术语学核心术语研究. 硕士学位论文. –黑龙江, 2010年. 第 96页.

⁵刘刚. 术语学概论. 硕士学位论文. –北京, 2008年. 254页.

⁶张一德. 应用术语学. 学术专著. –辽宁师范大学, 2012年. 202页.

⁷邹树. 现代术语学与辞书编. 词典. –北京外语大学. 2009年. 389页.

⁸刘涌泉. 略论我国术语工作. 硕士学位论文. –黑龙江, 2017年. 第 167页

Xitoy tilshunosligida adabiy til leksikasi sohalarining terminologik sistemalari, xalq so‘zlashuv nutqi, shevalari lug‘at boyligini o‘rganish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan, ko‘plab monografiyalar va risolalar nashr etilgan, ko‘plab maqolalar yozilgan⁹.

Zamonaviy terminologik tadqiqotlar Xitoyda nisbatan kech boshlanganligi holatlari kuzatiladi. Xitoy tilshunoslardan ushbu yo‘nalishga hissa qo‘sghan quyidagi nomlarni alohida ta’kidlab o‘tadigan bo‘lsak, bu qatorga: Tsuy Da Yong 崔大勇 [Cuī Dàyōng], Chjan Kan 张抗 [Zhāng Kàng], Chju Yatsze 朱亚杰 [Zhū Yájíé], Hou Syan 候祥 [Hòu Xiáng], Syan Sansyang 钱三强 [Qián Sānqiáng], Ye Sinsuan 叶庆全 [Yè Qìngquán], Lyu Gang 刘刚 [Liúgāng], Chjan Yide 张一德 [Zhāng Yídé], Zou Shu 邹树 [Zōu Shù], Fen Chjivey 冯志伟 [Féng Zhìwěi], Lyu Yunsuan 刘涌泉 [Liú Yǒngquán] tadqiqot ishlarini aynan xitoy tilshunosligida yuridik terminologiya sohasini izchil o‘rgangan va shu sohada qator izlanishlar olib borayotgan olimlar sifatida keltirib o‘tishimiz mumkin.

Xitoy tarixini varaqlaydigan bo‘lsak, qadimgi Xitoy huquq tizimining muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ikki qarama-qarshi falsafiy ta’limot – konfutsiylik va legizm o‘rtasidagi g‘oyaviy kurash “huquq” yo‘nalishini shakllantirishda juda muhim rol o‘ynagan. Konfutsiyning axloqiy siyosiy e’tiqodi va legizmning siyosiy huquqiy tushunchasi butun Qadimgi Xitoyda huquqning rivojlanishida, xususan, uning mafkuraviy asoslari, tamoyillari va institutlari, shuningdek, huquqni qo‘llash mexanizmi an‘anaviy xitoylik huquq tushunchasining rivojlanishida hal qiluvchi omillar bo‘lgan. Qadimgi Xitoy falsafiy va siyosiy maktabining ana shu ikki umumiy jihat shundan iboratki, ular siyosiy maqsadga, Xitoy jamiyatni “odillik” va “adolat” asosida tashkil etishga qaratilgan edi.

Qadimgi Xitoy huquqining rivojlanishini uch bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich – Shan-In va Qadimgi Chjou hukmronligi davriga borib taqaladi, bu davrda Xitoyda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda “axloq” 例 [li] asosiy rol o‘ynagan. Bu “axloq” 例 [li] Xitoy jamiyatni a’zolari va hukmdor 王 [Wáng] va ichki oilaviy munosabatlar o‘rtasidagi aloqalarni belgilaydi. Bunday me’yorlar ota-onaga, keksalarga hurmat, zodagonlar oldida ta’zim qilish ruhi bilan sug‘orilgan. Bundan tashqari, Konfutsiy tomonidan jamiyat huquqiy munosabatlarini belgilovchi muayyan me’yorlar, munosabatlar, harakatlar, huquq va burchlarni ifodalovchi tartib tushunchalarning ifodasi sifatida 例 [li] kodeksi ishlab chiqildi. “Li konsepsiyasida ierarxik munosabatlarga, mavjud tartiblarga, ajdodlar qoldirgan boshqarish an‘analariga va ma’naviy merosga itoat etish g‘oyasi yotadi. Konfutsiy jamiyat va davlatni insonparvarlik, ezgulik,adolat bilan boshqarish prinsiplarini ishlab chiqadi. Quyida 例 [li] kodeksida uchragan ayrim yuridik terminlar bilan tarjimasi va tahlili bilan tanishib chiqamiz:

法律文件[Fǎlù wénjiàn]¹⁰ “yuridik hujjatlar” deb ataluvchi terminning vujudga kelishi huquq tizimini me’yorlashtirdi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, huquqiy normalar bu davrda axloq normalaridan ajratilmagan, ular birgalikda qo‘llanilgan. Shu bilan birga, hokimiyatning kuchayishi bilan nafaqat hukmdorning, balki uning qarindoshlari va yuqori mansabdor shaxslarning buyruq va ko‘rsatmalar katta ahamiyat kasb etib, ularning bajarilishi “majburlash” yo‘li orqali amalga oshirilgan. Miloddan avvalgi VI asrda xitoyliklar orasida shubhasiz katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan Konfutsiy o‘z ta’limoti qoidalari to‘plamini yaratdi. Konfutsiylikning asosiy falsafiy g‘oyasi uyg‘unlik g‘oyasi bo‘lib, unga ko‘ra umumiy kosmogonik tartib, dunyodagi muvozanat va inson baxti uyg‘unlikning asosiy shartidir. Bu g‘oya odamlar va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni hamda kishilarning “tabiiy tartibi”da, ya’ni ularning

⁹Каримов А.А Хитой тилининг асосий грамматик бирликлари. – Т.: 2001. – 57-Б., Носирова С.А. Хитой тилида дипломатик атамалар ясалишида коппулатив моделнинг ўрни ва аҳамияти. Шарқшунослик (ТошДШИ) 2006. №1 – 5. Б.29 33.

¹⁰Русско-китайский и китайско-русский юридический словарь 俄语常用法律术语词典 / HuangDongjing 黄东晶 - 黑龙江. 黑龙江大学出版 · 2010. – C. 305

yaxshi xislat va axloqqa mos kelishi lozim bo‘lgan xulq-atvorida namoyon bo‘ladi. Konfutsiychilikda adolatli tartibni saqlash vositasi qonunga rioya qilish emas, balki urf-odat va axloqqa rioya qilish edi. Axloqiy me’yorlar va an’analar, yuksak axloq qiyofasini mustahkamlaydi, bu esa barcha “o‘lchovlar”ga rioya qilishga asoslanadi, bu esa, o‘z navbatida, odamlarni yaxshilik qilishda yon berishga yoki murosa qilishga undaydi.

Konfutsiyning fikriga ko‘ra “osmon farzandlari buyrug‘i” bilan tuzilgan uyg‘un jamiyat – bu guruhlar (birlashgan xlaq) to‘plami, ularning har biri o‘ziga yuklangan vazifalarni maksimal darajada bajarish uchun ijtimoiy-huquqiy sharoitlarda yashashi kerak. Bunday ittifoqning asosiy g‘oyasi – 孝 [xiào] g‘oyasi kattalarga, shuningdek, yuqori martabaga ega bo‘lganlarga hurmat ko‘rsatish edi¹¹.

Ikkinchi bosqich – Qadimgi Xitoy huquqining rivojlanishining ushbu bosqichida, ya’ni Chjan hukmronligi davridan (miloddan avvalgi V–III asrlar) muntazam jazo kompleksiga ega huquq roli oshdi. Aynan shu davrda legalizmning eng yorqin namoyandasasi Shan Yang 商鞅 xalq va davlatni boshqarishning ideal qonuniy ta’limotini yaratdi. Shan Yang 商鞅 Yan hukmdorining mutlaq hokimiyatini himoya qildi. Uning fikricha, hukmdor barcha fuqarolarning hayotini qat’iy belgilangan, ziddiyatga uchramaydigan qonunlar orqali belgilashi kerak¹².

Legistlar insonlarning “erkin boshqaruv”ini ta’minalash uchun ehtiyyot choralari va jamoaviy javobgarlik zaruratidan kelib chiqadigan qattiq jazolar doirasidan tashqarida yashashi foydasiz va imkonsiz degan g‘oyani ilgari surdilar hamda sodir etilgan jinoyat va jazoning og‘irligi o‘rtasidagi har qanday bog‘liqlikni tan olishni rad etdilar. Ularning fikricha, hukmdor amrini zarracha buzgan taqdirda ham qattiq jazolanishi kerak. Legalizm birinchi Xitoy imperiyasi – Sin sulolasining (miloddan avvalgi 221–207) rasmiy mafkurasi bo‘lib qoldi. Legistlar hokimiyat tepasiga kelgach, o‘zlarining huquqiy qarashlarini qo‘lladilar va konfutsiylik haqidagi kitoblarni yo‘q qilib, konfutsiylikka qarshi kurashdilar. Afsonalarda aytishicha, imperator Sin Shi Xuandi eramizdan avvalgi 213-yilda Konfutsiy kitoblarini yoqib yuborishni buyurib, 400 nafar konfutsiy olimlarini o‘ldirgan.

Uchinchi bosqich. Xan sulolasining vujudga kelishi bilan qadimgi Xitoy huquqi shakllanishining oxirgi 3-bosqichi (miloddan avvalgi 3-asr – milodiy 3-asr) konfutsiychilikning rasmiy g‘alabasi bosqichi hisoblanadi. Bu vaqtida legizm va konfutsiychilikning qo‘silishi natijasida yangi ta’limot – Xan Konfutsiychiligi paydo bo‘ldi. Uning asosiy maqsadi o‘sha davrda to‘plangan bilimlar asosida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimni qadimgi Xitoy jamiyatining yashab qolish va omon qolish maqsadlariga to‘la javob beradigan oqilona va barqaror tizim sifatida asoslash va davom ettirishdan iborat edi. Ushbu mafkuraning asosiy g‘oyasi konfutsiylik bo‘lib, u odamlarning tengsizligi, ularning ijtimoiy, sinfiy, mansab farqlari, shuningdek, lavozim, jins, yosh va boshqa tafovutlarni oqlaydi. Ushbu farqlarning doimiyligi rasmiy tan olingan marosimlar orqali odamlarning jamiyat va oiladagi xatti-harakatlarini sinchkovlik bilan tartibga solishga xizmat qilishi kerak bo‘lgan qat’iy axloqiy odatlar bilan izohlanadi. Holbuki, Konfutsiylik qonunni yoki qattiq jazoni rad etmadni. Shunday qilib, axloq va qonun bir-biriga mutanosib edi. Axloq, xulq-atvor mezonini belgilab berdi, qonun esa jazoga bo‘ysunmaslikni taqiqladi.

法 [fǎ] “qonun” termini Konfutsiy etikasidagi ustun me’yorlar, amaldagi qonun jazosi bilan majburlab o‘rnatilgan. Bu konfutsiychilikning qisqa va aniq qoidasida ham o‘z aksini topgan¹³. Konfutsiylik va qonunning uyg‘unligi 礼 [lǐ] me’yoriy hujjalardan majburiy va rasmiy xususiyatga ega bo‘lishiga olib keldi, o‘sha paytda muqaddas hisoblangan ko‘plab Konfutsiy asarlari jumladan, “周礼 Zhōu lǐ”, “一礼 Yīlǐ”, “乐子 Lèzǐ” singari asarlar qayta ishlab

¹¹崔璐,中国法律术语特点及相关问题分析,硕士论文. 2010年. 第 56页

¹² Книга правителя области Шан/ пер. с кит. Л. С. Переломова. М.: НИЦ Ладомир, 1993.- С.390

¹³ Ишкуватова Л.М. Ткачнеко А.В. Категории «ЛИ» и «ФА» в правовом поле традиционного Китая /Гуманитарные исследования 2015 № 3 3 (7) – С. 20.

chiqarilgan. Bu asarlarda konfutsiychilikning axloqiy me'yorlari miloddan avvalgi 1-ming yillikning 2-yarmi boshlaridayoq tizimlashtirilgan va mustahkamlangan.

Ma'lumotlarga ko'ra, birinchi yozma qonunlar Xitoyning Shan provinsiyasida paydo bo'lgan. Qadim zamonlardan beri Xitoy hukmdorlari tomonidan chiqarilgan qonun va qoidalarning ko'payishi bir-biriga zid bo'lgan huquqiy normalarga olib keldi va ularni amalga oshirishni qiyinlashtirdi. Natijada qonunni kodlashtirish zaruriyati paydo bo'ldi. Miloddan avvalgi X asrda Chjou davlatida amaldor Van Mu tomonidan 3000 ta moddaga ega bo'lgan 诉讼法典[sùsòng fǎdiǎn]¹⁴ ilk "jinoyat kodeksi" jazolar haqidagi qonunnoma ishlab chiqilgan.

Qonunnomada aybni yengillashtiradigan va og'irlashtiradigan holatlar haqida normalar, ehtiyyotsizlikdan va qasddan qilingan xatti-harakatlar bir-biridan ajratilgan. Qonunnomma alohida sud qarorlari yozuvi bo'lganligi ehtimoldan xoli emas, shuningdek, 例 [li] "odatlarga hurmat keltirish" huquqi me'yorlari mustahkamlangan¹⁵.

Qadimgi Xitoyda "Qonunlar sharhi" miloddan avvalgi 536-yilda birinchi yozma qonunlarning yorqin namunasi sifatida e'tirof etiladi. U sodir etilgan jinoyatlar uchun bir necha turdag'i jazoni nazarda tutgan, masalan: jinoyatchining tanasiga o'chmas belgilar qo'yish, o'lim jazosi va boshqalar. Bu jazolar keyinchalik eng keng tarqalgan jazo turlariga aylandi.

Miloddan avvalgi V–IV asrlarda legislarning ilg'or vakillaridan biri Li Kuy tomonidan tuzilgan "Vey podsholigi qonunlari kitobi" qadimgi Xitoydagi ilk qonunlar to'plamlaridan muhimi hisoblanadi. U quyidagi oltita bobni o'z ichiga oladi: o'g'rilar haqida, bosqinchilar haqida, zindonda saqlash haqida, jinoyatchilarni tutish haqida, qatl etish va qiyash qurollari haqidagi qonunlardan iborat bo'lgan.

Bu to'plam keljakda shu kabi og'ir turdag'i jazolar uchun qonunlar to'plamlarini ishlab chiqish tajribasini boshlab bergen. Miloddan avvalgi III–II asrlarda Xan davrida Xitoyda qadimgi qonunlarni bayon qilish, yozish, sharplash va qayta tiklash bo'yicha ahamiyatli ishlar amalga oshirilgan. Bu vaqtga kelib "Vey podsholigi qonunlari kitobi" qator boblar bilan, jumladan, harbiy ishlari, davlat ot-ulovi va moliya haqidagi huquq me'yorlari bilan to'ldirilgan.

财富权 [cái fù quán] termini xitoy tilidan o'zbek tiliga "mulk huquqi"¹⁶ yoki "mulkka egalik qilish huquqi"¹⁷ tarzida tarjima qilinadi. Xitoy an'anaviy huquqida xususiy huquq me'yorlari mustaqil tarzda rivojlanmagan. Shan (In) va g'arbiy Chjou davrida yerlar hukmdorning mulki hisoblangan. Podshodan mukofot, in'om tariqasida yer olganlar undan faqat foydalanish huquqiga ega bo'lganlar. G'arbiy Chjou davrida egalikdagi yernarning xususiy mulkka aylanishi tendensiysi asta-sekin sezila boshlangan.

Miloddan avvalgi I asr o'rtalaridan qator podsholiklar yer olish va sotish haqida bitimlar tuza boshlaganlar. Yerlar sotiladigan va sotib olinadigan, mayda uchastkalarga bo'linadigan yoki ayrim shaxslar qo'lida to'planadigan bo'la boshlagan. Lekin yerdan foydalanish xususiy yoki jamoa asosida foydalanish, unga egalik qay tarzda bo'lishidan qat'i nazar, yer mutlaq davlatga tegishli bo'lgan. Yer undan foydalanuvchilarga vaqtincha, egalik qiluvchilarga to'liq xususiy mulk bo'lib o'tmaganligi yozma hujjatlarda keltirib o'tilgan.

Xitoyda eng qadimgi davrlardan boshlab dehqonchilikning rivojlanishini rag'bat lantirish maqsadida har kimda egasiz va tashlandiq yernarni egallash huquqi mavjud bo'lgan. Ma'lum muddat o'tganidan so'ng bunday yerlar ularni ishlovchilarning xususiy mulki sifatida kadastrga yozib qo'yilgan. Shunday qilib, qadimgi Xitoyda yerga nisbatan davlat, jamoa va xususiy

¹⁴Русско-китайский и китайско-русский юридический словарь 俄语常用法律术语词典 / Huang Dongjing 黄东晶 - 黑龙江. 黑龙江大学出版 · 2010. – С. 305.

¹⁵Книга правителя области Шан/ пер. с кит. Л. С. Переломова. М.: НИЦ Ладомир, 1993. С. 133.

¹⁶Sharipov R, Hamidov X. Juridik terminlarning o'zbekcha-ruscha izohli lug'ati. Толковый словарь узбекско-русских юридических терминов. – Т.: 2020. – 170 b.

¹⁷Mulk huquqi – mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zinig mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanda yuzishni bartara f etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir.

mulkchilik shakllari mavjud bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan mulkka egalikning oxirgi shakli tobora rivojlanib borgan. Bu davrga kelib majburiyatlarni anglatuvchi shartnomalarining shakllanishi kuzatila boshlandi. Xususan, 买卖契约 [mǎimai qìyuē] “oldi-sotdi shartnomasi”, 债务契约 [zhàiwù qìyuē] “qarz shartnomasi”, 赠送契约 [zèngsòng qìyuē] “hadya shartnomasi”, 租出土地契约 [Zūchū tǔdì qìyuē] “yerni ijaraga berish shartnomasi”, 私有契约 [soyōu qìyuē] “xususiy mulkni ijaraga berish shartnomasi” kabilar. Yuqorida keltirilgan barcha terminlar tarkibidagi 契约 [qìyuē] ”shartnoma” komponenti hozirgi kunda qo‘llanilmaydi, uning o‘rnini合同 [héntóng] termini egallagani aniqlandi.

Qadimgi Xitoyda huquqning rivojlanishi ko‘proq jinoyat huquqi rivojlanishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Jinoyat tushunchasi inson jinoiy irodasining namoyon bo‘lishi bilan bog‘lanadi. Huquqbuzar shaxsga “pastkash inson” sifatida qaralgan hamda uning bu qilmishi orqali yashab turgan zamin, ijtimoiy jamiyat tabiat, hatto jinoyati xarakteriga qarab butun dunyoni buzib yuborishi mumkin deya faraz qilishgan.

Bundan tashqari, Xitoyda 暴[bào] xitoy tilidan o‘zbek tiliga “qasos” deb tarjima qilinadigan termindan sodir etilgan jinoyat uchun o‘ch (qasos) olish degan ma’noda foydalanilgan. Jinoyat huquqida ibridoiy jamoa tuzumining qoldig‘i sifatida qonli qasos olish odati uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan. Xitoy jamiyatida sinfiy kurashning keskinlashib borishi natijasida bu odat asta-sekin jazolarning boshqa turlari tomonidan siqib chiqarilgan, bevosita davlat hokimiyati tomonidan qo‘llaniladigan tan jazosi va o‘lim jazosi keng tarqala boshlagan.

Jazo turlari turli davrlarda bir-biridan juda kam farq qilgan. In davlatida tayoq bilan urish, burnini kesish, olovda kuydirish, boshini tanasidan judo qilish, tiriklayin yerga ko‘mish, oyoq va qo‘llarini uzish, ko‘zini o‘yish jazolari qo‘llanilgan. Podsho Mu Qonunnomasida jazolarning quyidagi besh turi ajratib ko‘rsatilgan:

- 1) 墨刑 [Mò xíng] “yuzga tamg‘a bosish” – bu 1000 xil turdag‘i ayblar uchun qo‘llanilgan;
- 2) 鼻刑 [Bí xíng] “burunni kesish” bu – ham 1000 xil turli ayblarga nisbatan berilgan;
- 3) 刑刑 [Fèi xíng] “oyog‘ini kesish” 500 xil turli ayblar uchun;
- 4) 去櫟 [Qù qú] “erkaklar uchun kastratsiya va ayollar uchun qulga aylantirish” 300 turli ayblar uchun;
- 5) 大辟刑 [Dàpǐng xíng] “boshini tanasidan judo qilish” 200 turli ayblar uchun jazolar¹⁸ qo‘llanilganligini rus xitoysunosi L.M.Ishkuvatova o‘zining “An’anaviy Xitoyning huquqiy sohasidagi “li” va “fa” toifalari” deb nomlanuvchi gumanitar tadqiqotlarida keltirib o‘tgani.

Shuningdek, jinoyatga tegishli 诬蔑 [wūmiè] “tuhmat” terminining kelib chiqishi va iste’molga kiritilishi bevosita Xan sulolasining hukmronligi davriga to‘g‘ri kelgan. Xan davrida “agar iroda erkin bo‘lsa, inson qonunni buzmaydi” degan konfutsiylik tamoyiliga asoslangan Xitoyda ayb shakli haqidagi maxsus ta’limot yuzaga kela boshlagan, jazo choralarini belgilashda jinoiy iroda hisobga olina boshlangan. Jinoyatchining irodasini hisobga olishni talab qilish miloddan avvalgi 120-yilgi qonunda ham mustahkamlangan. Bu talab asosida mamlakat huddida qasddan va ataylab, g‘araz maqsadlarda sodir qilingan jinoyatlar, shuningdek, xato natijasida sodir etilgan jinoyatlar bir-biridan ajratila boshlangan. Tan jarohati yetkazganlik uchun jazoning og‘irligi jarohat “yovuz maqsadda”mi yoki shunga bog‘liq bo‘lgan “ehtiyotsizlik” oqibatida sodir etilgan jinoyatlar farqlana boshladidi¹⁹.

Jumladan, 杀害 (shāhai) suiqasd tarzida tarjima qilingan termin qadimgi Xitoy jinoyat huquqida tugallangan jinoyat va 杀害 (shāhài) suiqasd o‘rtasidagi farq ham ajratilgan. Suiqasd qilish jinoiy iordaning namoyon bo‘lishi sifatida ko‘rilib, nisbatan o‘ta og‘ir jazo bilan jazolangan. Masalan, yaqin qarindoshini o‘ldirishga suiqasd qilish tugallangan jinoyat deb hisoblangan va tegishli tartibda chora ko‘rilgan.

¹⁸Ишкуватова Л.М. Ткаченко А.В. Категории «ЛИ» и «ФА» в правовом поле традиционного Китая//Гуманитарная исследования 2015 №3(7). – С. 20.

¹⁹Хаматова А.А. Словообразование современного китайского языка. – М.: Изд-во «Муравей», 2003. – С.83.

Xulosa qilib aytganda, Xitoyda yuridik terminologiya rivojlanish tarixi uzoq o'tmishga ega ekanligimi yuqorida ta'kidlangan ma'lumotlar orqali guvohi bo'ldik. Xitoy yuridik terminologiyasi sohasining rivojlanishida aynan ikki qarama-qarshi falsafiy ta'limot – konfutsiylik va legizm o'rtaqidagi g'oyaviy kurash juda muhim rol o'ynagan. Konfutsiyning axloqiy-siyosiy e'tiqodi va legizmning siyosiy-huquqiy tushunchasi butun Qadimgi Xitoyda huquqning rivojlanishida, xususan, uning mafkuraviy asoslari, tamoyillari va institutlari, shuningdek, huquqni qo'llash mexanizmi an'anaviy xitoylik huquq tushunchasining rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblangan.